

**YUSUF VA ZULAYHO MAVZUSI AKS ETGAN ASARLAR QIYOSIY TAHLILI****Suyunova Dilbar****Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti kafedra o'qituvchisi****Qodirova Marjona****Kattaqo'rg'on Davlat Pedagogika****Instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va  
adabiyoti yo'nalishi 25\_03-guruhi talabasi****+998932615407****marjonaqodirova188@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20151285>**

**Annotatsiya:** Sharq adabiyotining eng teran va serqirra mavzularidan biri bo'lgan "Yusuf va Zulayho" qissasi asrlar davomida ko'plab ijodkorlarga ilhom manbai bo'lib kelgan. Ushbu maqolada Durbekning "Yusuf va Zulayho", Qul Alining "Qissasi Yusuf", Nurmuhammad Andalibning "Yusuf va Zulayho" asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada bu turkumdagi ilk badiiy asarlar, dostonda tush va kurash motivlari, "Qissayi Yusuf" va "Yusuf va Zulayho" dostonlaridagi o'ziga xosliklar o'rganiladi. Natijalar mavzuning universal jozibasini va uning adabiy evolyutsiyasini ochib beradi, Sharq adabiyoti boyligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** qissa, doston, madaniy muhit, xalq og'zaki ijodi, g'oyaviy o'xshashlik, ruboiy, majoziy ishq, haqiqiy ishq.

**Аннотация:** Одной из самых глубоких и многогранных тем восточной литературы является сюжет «Юсуф и Зулейха», который на протяжении веков служил источником вдохновения для многих творцов. В данной статье проводится сравнительный анализ произведений Дурбека «Юсуф и Зулейха», Кул Али «Кыссаи Юсуф» и Нурмухаммада Андалиба «Юсуф и Зулейха». В статье исследуются первые художественные произведения данного цикла, мотивы сна и борьбы в дастанах, а также своеобразие произведений «Кыссаи Юсуф» и «Юсуф и Зулейха». Результаты исследования раскрывают универсальную привлекательность темы и её литературную эволюцию, демонстрируя богатство восточной литературы.

**Ключевые слова:** кисса, дастан, культурная среда, устное народное творчество, идейное сходство, рубаи, метафорическая любовь, истинная любовь.

**Abstract:** One of the deepest and most multifaceted themes of Eastern literature, the story of "Yusuf and Zulaykha," has served as a source of inspiration for many writers throughout the centuries. This article presents a comparative analysis of Durbek's "Yusuf and Zulaykha," Qul Ali's "Qissasi Yusuf," and Nurmuhammad Andalib's "Yusuf and Zulaykha." The study examines the earliest literary works of this cycle, the motifs of dreams and struggle in the epics, as well as the distinctive features of "Qissayi Yusuf" and "Yusuf and Zulaykha" epics. The findings reveal the universal appeal of the theme and its literary evolution, demonstrating the richness of Eastern literature.

**Keywords:** qissa, epic poem, cultural environment, folklore, ideological similarity, rubai, metaphorical love, true love.

**Kirish.** "Yusuf va Zulayho" qissasi nafaqat Islom dunyosi, balki butun Sharq adabiyoti uchun markaziy o'rin tutuvchi, Qur'on qissalaridan ilhomlangan abadiy mavzulardan biridir. Bu hikoya ilohiy ishq, insoniy ehtiros, go'zallikning qudrati, sabr va taqdirning murakkab o'yinlarini qamrab oladi. Asrlar davomida ko'plab shoirlar, jumladan, Jomiy, Fuzuliy kabi buyuk

mutafakkirlar ushbu mavzuga murojaat qilib, uni o'ziga xos talqinlarda qayta yaratganlar. Ushbu maqolada bu dostonlarning chuqur qiyosiy tahlilini o'tkazish, ularning tematik, stilistik va obraz yaratishdagi o'ziga xosliklarini ochib berish maqsad qilingan. Bu mavzuning adabiy evolyutsiyasini tushunishga yordam beradi.

**Asosiy qism.** Shunday asarlar borki, bu asarlarning nomi ayrim xalqlarning adabiyoti tajassumini o'zida ifoda etadi. “Qissayi Yusuf” yoki “Yusuf” qissalari hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlari shunday asarlar jumlasiga kiradi. Bu turkumdagi asarlar Sharq xalqlarida ko'p tarqalgan. Shu bilan birga, bu dostonlarning variantlari ko'p. Yusuf voqeasiga bag'ishlab yozilgan birinchi badiiy asar Abulqosim Firdavsiyning (934-1020) “Yusuf va Zulayho” dostonidir. Keyingisi Abdurahmon Jomiyning (1314-1492) shu nomdagi asaridir. Turkiy adabiyotda ilk bor Yusuf syujeti asosida yaratilgan badiiy asar XI 11 asrda yashagan Qul Alining “Qissayi Yusuf” dostonidir. Shoirning “Qissayi Yusuf” dostoni bugungi kunda tatar adabiyotiga nisbat berilayotgan bo'lsa-da, asar yozilgan davrda hali turkiy qavmlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni oxiriga yetmagani uchun, bu asarni umumturkiy yodgorlik sifatida qarash maqsadga muvofiq. Yana XI 11 asrning ikkinchi yarmida Kichik Osiyo saljuqiylaridan Sayyod Hamza ham “Yusuf va Zulayho” dostonini yaratgan. 1409-yili Durbek degan shoirga nisbat berib kelinayotgan “Yusuf va Zulayho” dostoni ham o'zbek tilidagi bu an'anaviy dostonning yorqin, mukammal namunalaridandir.

Durbekning yozishicha, turkiy til bilan "Yusuf va Zulayho" qissasini nazmda bayon etish uning ko'nglida tug'ilgan shirin niyati edi. Balx qamali davrida Durbek forsiy tilda nasrda bitilgan «Qissasi Yusuf» bilan tanishadi. Biroq shoir bu asar va uning muallifi haqida dostonda hech qanday ma'lumot bermaydi. «Yusuf va Zulayho» haqida yirik hajmli doston yozishga kirishgan shoir, shubhasizki, «Yusuf va Zulayho»ning zukko kitobxonlar orasida keng tarqalgan xalq kitobi nusxalari bilan ham tanish bo'lgan. Shuningdek, shoirning «Goh o'qir edim zi kalomi iloh» misrasi uning Qur'oni karimdagi «Yusuf» surasidan ham ijodiy ta'sirlanganligini dalillaydi. «Yusuf va Zulayho» ishq-muhabbat mavzusida yozilgan doston bo'lishi bilan bir qatorda, unda shoirning axloqiy-talimiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, adolatli hukmdor haqidagi o'y-xayollari hamda islom dinining dunyoviy shuhrat kasb etishi singari muhim ahamiyatga molik mulohazalari badiiy in'ikosini topgan. Dostonning qisqacha tafsiloti quyidagicha: Mag'ribda nomi keng tarqalgan, doimo zafar yo'ldoshi bo'lgan shoh Taymusning qizi Zulayho tushida Yusufni ko'rib, unga g'oyibona oshiq bo'ladi. Uning tushida Yusuf o'zini quyidagicha tanishtiradi:

**Dedikim:-« Yusufdur otim, gul uzor,  
Men eraram Misr elida shahriyor.**

Zulayho ishqning asiriga aylanadi. U Yusufni izlab Misrga boradi. Ammo taqdir taqozosi bilan Misr Aziziga turmushga chiqadi. Vaqt o'tgan sari uning Yusufga bo'lgan muhabbati kuchayib boradi. Taqdir taqozosi bilan Yusuf ham Misrga borib qoladi. Ko'plab mashaqqatlaridan so'ng ular birga bo'lishadi.

Asarda chinakam muhabbat tarannum etilib, turli yovuzliklar natijasida aziyat chekkan barcha kishilar hayotning zavqli onlaridan bahramand bo'lishdek baxtga qayta musharraf bo'lishlari mahorat bilan badiiy ifodasini topgan. Og'a-inilar qilgan yovuz ishlaridan pushaymon bo'lishadi. «Yusuf va Zulayho» dostonining qurilishi, voqealar rivoji murakkab bo'lgan asardir. Unda juda ko'p voqealar va obrazlar mavjud bo'lib, ular asosan Yusuf

sarguzashtlari atrofida birlashgan hamda dostonidagi asosiy qahramonlarning qator fazilatlarini ochishga xizmat qilgan.

Qul Ali “Qissayi Yusuf” asarini ruboiy janrida yozgan. Bu haqda shoir quyidagicha ma’lumot beradi:

**Yo darig’o, tekma kimsa do’zumadi,  
Fahmi eksuk kimisalar yazumadi.  
Bu zaifing ushbu nazmi azumadi,  
Ruboiyg’a vazn ichra dutsun emdi.**

Qul Ali o’z hikmatlarida “Yusuf savchi”, “Yusuf nabi” kabi ismlarni bir necha marta qo’llaydi. Bu bilan “Qissayi Yusuf” dostoni uning ijodida muhim o’rin tutganiga ishora qiladi. Qul Alining “Qissayi Yusuf” dostoni mazmuni quyidagicha:

Yoqubning o’n ikki farzandidan o’n birinchisi Yusuf tush ko’radi. Tushida quyosh, oy va o’n bir yulduz unga sajda qilib, bosh egib turgan ekanlar. Yoqub kelajakda bu o’g’li akalariga bosh bo’lishidan alomat ekanini biladi. Yoqubning qizi bu tush voqeasini akalariga yetkazadi. Mojarolar shundan boshlanadi. Shundan keyin Yusuf boshidan ko’plab qiyinchiliklarni o’tkazadi. Bu qiyinchiliklardan so’ng ular Misr shohiga aylanadi. Akalari ham unga bosh egib kelishadi. Bu voqea Yusuf ko’rgan tushining ta’biri edi.

Yusufning Zulayhoga, Zulayhoning Yusufga bo’lgan sevgisi ilohiy ishq timsolidan dalolat. Qul Ali Zulayhoning Yusufga bo’lgan muhabbatini tasvirlar ekan, hamma narsadan, hammaning har qanday so’zidan faqat “Yusuf!” degan sado keladi. Ishqning, Haq ishqining mukammal timsolini Qul Ali quyidagicha ta’riflaydi:

**Mushkul holg’a dushdi ul anda keyin,  
Bir soatqa ko’rmasa Yusuf yuzin,  
Sabri qolmaz, anglamaz kirnsa so’zin,  
Ne so’zlasa, “Yusuf!” deyu so’zlar emdi.**

“Qissayi Yusuf” va “Yusuf va Zulayho” dostonlaridan ma’lum bo’ladiki, Musoning “Ibtido” kitobidan boshlab asosiy syujet biridan ikkinchisiga o’tib kelavergan. Ayni paytda doston ijodkorlari mavzuga ijodiy yondoshib, takrorlanmas lavhalarni yaratdilar. Jumladan, Qul Alining “Qissayi Yusuf”ida Zulayho va ayollar o’tirgan uyga Yusuf kirib kelganda, sabzi to’g’ rayotgan ayollar Yusufning husnini ko’rib, unga shunchalik mahliyo bo’lib qoladilarki, hatto sabzi o’rniga barmoqlarini to’g’raganlarini sezmaydilar. Shu syujet Abdurahmon Jomiyning fors tilidagi dostonida bor va Ogahiy bu dostonni o’zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. O’zbekcha “Yusuf va Zulayho”da shu lavha yo’q. O’zbekcha dostonida akalari Yusufning kiyimini echki qoniga bo’yab, otalari Yoqubga, ukamizni bo’ri yedi, deb yolg’on xabar yetkazganlarida, bo’ri tilga kiradi va “Yusufni men yemadim, faqat manovi osiy o’g’illaring ushlab, og’zimga qon surtdilar va menga tuhmat qildilar”, deb Yoqubga bor voqeani aytadi. Bo’ri mana shu o’lkaga inisini asir qilib olib kelganlarini, inisini qidirib yurganini hikoya qilib beradi. Kurd shoiri Salim Sulaymonning “Yusuf va Zulayho” dostonida bu lavha bir oz kengroq, ayni paytda ta’sirchan bo’yoqlarda berilgan: Yoqubga o’g’illari shunday deb xabar keltiradilar: “Biz tog’da sayr qilib yurganimizda, Yusuf bizga quloq solmadi, biz uni nazorat qila olmay qoldik. Oqibatda uni bo’rilar yeb ketdi”. Yoqub o’g’illariga: “Yolg’on gapirmanglar, qanday qilib bunaqa hodisa yuz berishi mumkin?! Qani, menga isbotlab, tushuntirib beringlar-chi!” deb so’raydi.

Andalibning "Yusuf va Zulayho" qissasi qadimiy syujetga ega asarlardan hisoblanadi. Dastlab qissa sura sifatida Qur'oni karimda mavjud bo'lgan paytlardan boshlab Chahoryorlar, Sahobalar, Muhaddislar, mufasssirlar, mutasavvuflar va qissaxon roviylar Tavrot, Injil va folklor namunalaridan foydalanib syujetni to'ldirish, mukammallashtirishga kirishganlar va bunda fantaziyaga ham keng o'rin berilgan. Undagi har bir voqea xilma-xil shakl va yo'nalishlarda izohlangan. Keyingi asarlarda arab, fors-tojik va turkiy adabiyotlarda yuzaga kelgan "Qissasul anbiyo"larda ana shu izohlarkan foydalanishgan.

Andalibning dostonida "Yusuf va Zulayho"ning o'zaro g'amxo'rliqi shu darajada kuchli tasvirlanganki, biz buni boshqa Yusuf va Zulayholarda ko'rmaymiz. Yusuf o'limi yaqinlashganini sezib, Zulayho bilan vidolashadi, uning ko'nglini ko'taradi, u bilan baxtli hayot kechirgani uchun minnatdorlik bildiradi. Vafotidan so'ng Zulayhoning baxtli hayot kechirishini istaydi:

**Men ketganda qo'yma o'zung jafog'a,  
Fig'on etib, qolm yana azog'a,  
Topshurmisham sani qodir xudog'a  
Xush, omon bo'l, jonim, ketmali bo'ldum.**

"Yusuf va Zulayho" dostoni. Hazrati Yusuf alayhissalom taqdiri bilan bog'liq sarguzashtlarning asosi "Qur'on"ga borib tutashadi. Kalomullohdagi "Yusuf" surasi asosida XX asrgacha ko'p asarlar maydonga keldi. Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostonining yaratilish asosi ham shu bilan bog'liq. Muallif asarda uning yaratilish tarixi, yozilish sabablariga to'xtaladi. Uning e'tiroficha, doston turkigo'y qavmlar ehtiyojini inobatga olib yaratilgan. Asar oshiqi pokdomonni kamolga yetkazishga, haqiqiy ishqdan saboq berishga mo'ljallangan.

Dostondagi bosh qahramon Yusuf donishmandlik, aql-idrok, sodiqlik, vafodorlik, bir so'z bilan aytganda, komillik ramzidir. U mehr-oqibatli farzand, uka va yor. Kechirimli inson. U faqat shaxsiy va qarindoshchilik rishtalari bilan cheklanmaydi. Tasavvurimizda xalq g'amini yeyuvchi ulkan shaxs timsoli sifatida gavdalanadi. Zulayho timsoli doston syujeti davomida takomillashib boradi. Bu obrazlar bir-birini to'ldiradi. Ularda biz dunyoviy real tasvirlarni ko'ramiz. Ammo, dostondagi turli taqdirilar kechmishida biz botiniy kamolot tadriji ifodasi ham borligini angalaymiz.

Jomiyning dostonida ilohiy ishq va tasavvufiy ma'rifat ustuvor bo'lib, Zulayhoning Yusufga bo'lgan muhabbati bosqichma-bosqich ilohiy ishqqa aylanadi. Fuzuliy esa insoniy ehtiros, azob-uqubat va muhabbatning fojiaiviy jihatlariga ko'proq urg'u beradi. Uning asarida Zulayhoning iztiroblari yanada chuqur va dramatik tarzda tasvirlanadi. Yusuf obrazi ham har ikki ijodkorda turli nuqtai nazardan ochib berilgan: Jomiyda u ilohiy nur va poklik timsoli bo'lsa, Fuzuliyda uning insoniy fazilatlar ham yorqin aks etadi. Bu farqlar mualliflarning dunyoqarashi, ijodiy uslubi va yashagan davrining adabiy an'analari bilan bog'liq bo'lib, har bir asarning betakrorligini ta'minlaydi.

**Xulosa.** "Yusuf va Zulayho" mavzusi asosida yaratilgan asarlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy syujetga qaramay, har bir doston o'ziga xos badiiy va falsafiy qadriyatga ega. Jomiy va Fuzuliy kabi buyuk shoirlar ushbu qissani o'ziga xos tarzda talqin qilib, Sharq adabiyotining boyligini namoyish etganlar. Bu asarlar ilohiy va insoniy ishqning murakkab dialektikasini, go'zallikning turli qirralarini va taqdirning sirli jabhalarini chuqur ochib beradi. Tadqiqot natijalari ushbu universal mavzuning adabiy tafakkurdagi doimiy ahamiyatini va

uning kelajak avlodlar uchun ham ilhom manbai bo'lib qolishini tasdiqlaydi, shuningdek, madaniy merosimizni boyitadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Nasimxon Rahmonov O 'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). Olquv qo'llanma. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. - 556 bet.
2. Rahim Vohido, Husniddin Eshonqulov. O 'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O 'quv qo'llanma. - T.: O 'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 528 b.
3. Ahmadqulova S."Adalib va uning "Yusuf va Zulayho " dostoni maqolasi.
4. Mansurova D."Yusuf va Zulayho" dostonida an'ana va o'ziga xoslik. S 2016.